



Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-fevral)

2020-yilning yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **524,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,3** % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmi



Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **28,7** mlrd. so'mni




tashkil etib, o'sish sur'ati **52,2 %** bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,5 %** ni tashkil etdi .

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **73,3 %** i to`g`ri kelib, shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **107,3 %** ni tashkil etgan holda **383,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari **21,2 %** ni tashkil etdi va **111,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **101,5 %** ni tashkil etgani kuzatildi.

Tashkilot turlari bo'yicha qurilish ishlari





Davlat va nodavlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




○ Nodavlat mulk


○ Davlat mulki

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **8,4** mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar- fevral oyiga nisbatan **84,7 %** qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **515,6** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'sish sur'ati **100,6 %** ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi ulushlari mos ravishda **1,6 %** va **98,4 %** ni tashkil etdi.


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi.




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 74,0 % i yoki 388,0 mlrd. so`m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo`yicha yangi qurilish hisobidan 8,2 mlrd. so`m ishlar bajarildi, yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 28,7 % tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar bo`yicha yangi qurilish hisobidan 270,0 mlrd. so`m, yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 70,3 % tashkil etdi.



Norasmiy sektor hissasiga 109,8 mlrd. so`m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 98,5 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2020-yil yanvar-fevral



71,0 %

Bino va inshootlar qurish
bo'yicha qurilish ishlari




371,9
mlrd. so'm



10,7 %

Fuqarolik obyektlarini qurish
bo'yicha qurilish ishlari




56,1
mlrd. so'm



18,3 %

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari



96,0
mlrd. so'm


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(ulushi % da)

2019-yil yanvar-fevral



2020-yil yanvar-fevral



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona va
mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,4 %** ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **3,2 %** punktga ko'payib, **68,6 %** ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ushbu faoliyatdagi ulushi **30,0 %** ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **4,6 %** ga kamayish kuzatiladi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(ulushi, % da)

2019-yil yanvar-fevral



2020-yil yanvar-fevral



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **9,5 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **12,3 %** punktga kamaydi. Ushbu faoliyat turidan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi **90,5 %** ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **12,3 %** punktga kamayish kuzatiladi.




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

2019-yil yanvar-fevral



2020-yil yanvar-fevral



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **13,0 %** punktga kamaydi va **18,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **81,1 %** kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **13,0 %** punktga ko'paydi.

Korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-fevral)

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan korxonalar turlari bo'yicha:		
		Yirik qurilish korxonalari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norashmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	524,0	28,7	383,9	111,4
Nukus sh.	215,9	3,2	191,4	21,3
tumanlar:				
Amudaryo	22,1	0,3	15,7	6,1
Beruniy	33,8	0,1	16,3	17,4
Bo'zotov	0,8	0,0	0,0	0,8
Qorao`zak	10,4	0,0	9,7	0,7
Kegayli	5,4	0,2	2,9	2,3
Qo'ng'irot	54,5	18,9	29,5	6,1
Qonliko'l	6,7	0,3	4,0	2,4
Mo'ynoq	5,1	0,6	2,5	2,0
Nukus	23,8	0,0	14,3	9,5
Taxiatosh	17,5	4,2	11,3	2,0
Taxtako'pir	17,0	0,6	16,0	0,4
To'rtkul	40,8	0,1	29,5	11,2
Xo'jayli	28,9	0,2	8,8	19,9
Chimboy	8,2	0,0	5,6	2,6
Shumanoy	7,7	0,0	6,6	1,1
Ellikqal'a	25,4	0,0	19,8	5,6


Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-fevral)

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'sish sur`ati, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	524,0	100,3	100,0
Nukus sh.	215,9	100,5	41,2
tumanlar:			
Amudaryo	22,1	101,5	4,2
Beruniy	33,8	100,5	6,5
Bo'zotov	0,8	101,1	0,2
Qorao`zak	10,4	101,9	2,0
Kegayli	5,4	100,2	1,0
Qo'ng'irot	54,5	99,5	10,4
Qonliko'l	6,7	101,3	1,3
Mo'ynoq	5,1	100,7	1,0
Nukus	23,8	102,5	4,5
Taxiatosh	17,5	95,8	3,3
Taxtako'pir	17,0	102,3	3,2
To'rtkul	40,8	98,0	7,8
Xo'jayli	28,9	101,0	5,5
Chimboy	8,2	101,3	1,6
Shumanoy	7,7	101,6	1,5
Ellikqal'a	25,4	101,2	4,8

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika
boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 230-82-13

(71) 230-82-14

(61) 222-75-91